**Emro Science and Education**
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319867

**"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"**

# AHOLI TURMUSH FAROVONLIGI VA DAROMADLARI TARKIBINING TAHLILI

**RISKIMBOYEVA MUNISA USMON QIZI**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 3-bosqich talabasi
munisariskimboyeva@gmail.com
**ZOKIROVA MUNISA JAMOLIDDIN QIZI**
Ilmiy rahbar: katta o`qituvchisi
munisahusniddinova9@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Mazkur ilmiy maqolada aholi farovonligini oshirishning makroiqtisodiy mexanizmlari va daromadlar tarkibini optimallashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda aholi turmush darajasini baholashning xalqaro metodologiyasi va milliy xususiyatlari inobatga olingan holda, statistik ko'rsatkichlar tizimi tahlil qilingan. Xususan, mehnat faoliyati, tadbirkorlik hamda ijtimoiy transfertlarning umumiy daromadlardagi ulushi va ularning o'zgarish tendensiyalari baholangan. Muallif tomonidan aholi turmush darajasini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar guruhlarga ajratilgan va iqtisodiy islohotlarning aholi farovonligiga ta'sirini kuchaytirish bo'yicha tahliliy xulosalar berilgan. Olingan natijalar daromadlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirish va aholi turmush sifatini yangi bosqichga ko'tarishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so'zlar:*** *mehnat haqi, transfert daromadlar, turar joy, nafaqa, tadbirkorlikdan olingan daromadlar, dividend, iste'mol savati, aholi daromadlari, oziq-ovqat iste'moli, ijtimoiy to'lovlar, ko'chmas mulk.*

## ЭКОНОМИЧЕСКИЙ СТАТИСТИЧЕСКИЙ СБОРНИК И РАСПРЕДЕЛЕНИЕ ДАННЫХ

***Аннотация:*** *В данной научной статье освещены макроэкономические механизмы повышения благосостояния населения и вопросы оптимизации структуры доходов. В ходе исследования проанализирована система статистических показателей с учетом международной методологии оценки уровня жизни и национальных особенностей. В частности, оценены доли трудовой деятельности, предпринимательства и социальных трансфертов в общем объеме доходов, а также тенденции их изменения. Автором сгруппированы факторы, влияющие на повышение уровня жизни населения, и представлены аналитические выводы по усилению влияния экономических реформ на благосостояние общества. Полученные результаты имеют важное научное значение в сокращении разрыва в доходах и подъеме качества жизни населения на новый этап.*

***Ключевые слова:*** *заработная плата, трансфертные доходы, жилье, пособие, предпринимательские доходы, дивиденд, потребительская корзина,*



Published: 05.06.2026

**Cite this article:** Riskimboyeva Munisa Usmon qizi, Zokirova Munisa Jamoliddin qizi (2026). Aholi turmush farovonligi va daromadlari tarkibining tahlili. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319867

*© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

*доходы населения, потребление продуктов питания, социальные выплаты, недвижимость.*

## STATISTICAL COLLECTION AND DISTRIBUTION OF ECONOMIC DATA

***Annotation:*** *This scientific article highlights the macroeconomic mechanisms for increasing public welfare and the issues of optimizing the structure of income. The study analyzes the system of statistical indicators, taking into account international methodologies for assessing living standards and national characteristics. In particular, the shares of labor activity, entrepreneurship, and social transfers in total income, as well as their change trends, are evaluated. The author categorizes the factors influencing the improvement of the population's standard of living and provides analytical conclusions on strengthening the impact of economic reforms on public welfare. The results obtained are of significant scientific importance in reducing income inequality and elevating the quality of life to a new stage.*

***Keywords:*** *wages, transfer incomes, housing, allowance, entrepreneurial income, dividend, consumer basket, population income, food consumption, social payments, real estate.*

### Kirish

Har qanday mamlakatning asosiy maqsadi aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, iqtisodiy rivojlanishi, tinchligini ta’minlash hamda inson sog‘lom va farovon hayot kechirishi uchun davlat kuchli ijtimoiy siyosat olib borishi zarur. Aholining turmush darajasi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u kishilarning moddiy va madaniy-maishiy ehtiyojlarining qondirilishi hamda ijtimoiy turmush sharoitining yaxshilanib borishi kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Aholining moddiy ehtiyojlariga oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg‘i va uy-ro‘zg‘or buyumlariga bo‘lgan talablari kiradi. Aholining madaniy-maishiy ehtiyojlariga insonlarning bilim, malakasini oshirish, maishiy va kommunal xizmat ko‘rsatishni yaxshilash kabilarga bo‘lgan ehtiyojlari kiradi.

Aholi turmush darajasi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Uni oshirib borish ijtimoiy rivojlanishining asosiy maqsadidir. “Turmush darajasi” tushunchasi zamonaviy talqinda inson faoliyatining barcha tomonlariga taalluqli bo‘lgan keng qamrovli tushunchadir. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida O‘zbekistonda yangi ijtimoiy iqtisodiy sharoitlarga javob beradigan aholi turmush darajasi konsepsiyasini yaratishga zarurat tug‘ildi. Mazkur konsepsiyani shakllantirishda so‘nggi yillarda jahon amaliyotida keng qo‘llanilayotgan “turmush sifati” konsepsiyasining ayrim qoidalaridan foydalanish mumkin.

Turmush sifati konsepsiyasi inson jamoalarining jismoniy, aqliy va ijtimoiy barkamolligini belgilovchi shartlarni shakllantiradi. Bu yerda gap faqat turmush sifati (ovqatlanish, uy-joy, ish bilan bandlik, ta’lim darajasi)ni baholovchi obyektiv omillar haqida emas, balki inson tomonidan o‘zining farovonligi, baxt, rohat kabi tushunchalarni sub’yektiv his etish to‘g‘risida ham bormoqda. Masalan, sog‘liq darajasi, oilaviy munosabatlar, ishi, moddiy ahvoli, yaratuvchanlik qobiliyati va hokazolardan qoniqish hayotdan qoniqish hosil qilishning muhim komponenti hisoblanadi. Shunday qilib, turmush sifati konsepsiyasi insonning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlarini ham o‘z ichiga oladi. Bu munosabatlar ehtiyojlarning qondirilganligi va mavjud imkoniyatlarni kutilgan imkoniyatlarga mosligi darajasini tavsiflaydi.

Aholining turmush darajasi aholi hayot faoliyatining ma’lum bir qirrasi to‘g‘risida tasavvur beradigan ko‘rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi. Turmush darajasi to‘g‘risida batafsil ma’lumot olish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste’mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqa imkoniyatlar bilan ta’minlanganlik darajasini chuqur o‘rganish lozim.

**Adabiyotlar tahlili**

Mamlakat aholisi turmush darajasini baholash va bu boradagi izlanishlar XX asrning 20-yillarida boshlanib, bu borada V.I.Rutgayzer., V.F.Mayer., I.I. Eliseyeva, N.I.Buzlyakov va V.N. Salin boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ularning ilmiy izlanishlarida aholi turmush darajasi o‘z mamlakatlari aholisining turmush tarzi, ishlab chiqaruvchi kuchlarining joylashuvi hamda rivojlanishini hisobga olib, ilmiy tadqiq etilgan. Bularning barchasi aholi turmush darajasini o‘rganish sohasida bo‘layotgan izlanish su’ratlariga, ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqishga ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi.

Aholi turmush darajasini baholash muammolarini mahalliy olimlardan Yo.Abdullayev, Q.Abdu- rahmonov, N.Zokirova, N.M.Soatov, M.G.Nazarov, X.Abulqosimov, A.Vahobov, G.Saidova, S.G‘ulomov, B.G‘oyibnazarov, E.Akramov, X.Muxitdinov, A.O‘lma- sov, R.Xasanov, Sh.Shodmonov, M.Xakimova, D.Rahimova va boshqalar o‘z asarlarida keng bayon etganlar. I.I.Eliseyeva fikricha, O‘zbekiston hududlari aholisining pul daromadlari darajasi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi sezilarli tabaqalanishning mavjudligi bilan baholanadi. Bu bir qancha sabablar bilan bog‘liq.

V.N.Salin: “Aholi turmush darajasi”- bu aholining iste’moli qondirilishining moddiy imkoniyatlarini tavsiflaydi. U o‘z ichiga ijtimoiy hayotning turli ijtimoiy jihatlarini: mehnat sharoiti, aholi daromadlari va xarajatlari darajasi va tuzilmasi, bo‘sh vaqtdan foydalanish, sog‘liqni saqlash, madaniyat, san’at va hokazolarning rivojlanish darajasini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy hayotning ijtimoiy tomonlarini miqdoriy tavsiflash ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar yordamida amalga oshiriladi

hamda aholi turmush darajasi va ijtimoiy rivojlanishini statistik o‘rganish predmeti hisoblanadi”, – deb ta’riflaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqot mobaynida ilmiy tahlilning umumiy uslublari, shuningdek, maxsus statistik uslublar: anketa orqali tekshirish, statistik guruhlash, tanlanma kuzatish, iqtisodiy indekslar, dinamika qatorlari, korrelatsion-regression tahlil va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar**

Turmush darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar turli-tuman bo‘lib, turmush darajasi konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq. Aholining turmush darajasini ifodalovchi ayrim muhim ko‘rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan.

Turmush darajasini baholash uchun ushbu jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlar:

- darajaga oid ko‘rsatkichlar (mutlaq qiymat lar);
- tarkibiy ko‘rsatkichlar (darajaga oid ko‘rsatkichlarning tarkibiy qismlari);
- dinamik (darajaga oid ko‘rsatkichlarning o‘zgarishini tavsiflaydigan, nisbiy) ko‘rsatkichlar sifatida hisoblab chiqilishi mumkin.

Nisbiy turmush darajasini quyidagi uchta jihat bo‘yicha:

a) avvalgi yillardagi turmush darajasi bilan taqqoslash;

b) bir mintaqadagi turmush darajasini boshqa mintaqalardagi (mamlakatlardagi) turmush darajasi bilan taqqoslash;

c) amaldagi turmush darajasini odamlarning minimal va oqilona talablarini ifodalovchi ehtiyojlarining rivojlanganlik darajasi bilan taqqoslash orqali aniqlash mumkin.

Aholining turmush darajasini ifodalash uchun jahondagi turli mamlakatlarda turlicha mezonlar qo‘llaniladi. Ular orasida minimal iste’mol budjeti, kambag‘allik, mutlaq va nisbiy kambag‘allik ko‘rsatkichlaridan keng foydalaniladi. Minimal iste’mol budjeti – shaxsning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy ehtiyojlar iste’molining ijtimoiy asoslangan minimal darajasini ta’minlaydigan iste’mol tovarlari va xizmatlari turlarining qiymati.

Aholi turmush darajasining asosiy ijtimoiy- iqtisodiy indikatorlarini: aholi pul daromadlari va xarajatlari, uning tarkibi va foydalanilishi; daromad bo‘yicha aholini taqsimlash to‘g‘risidagi ma’lumotlar tavsiflaydi. Aholi pul daromadlari barcha kategoriyalardagi aholining mehnati evaziga olgan ish haqi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning daromadlari, nafaqa, tushum, stipendiya, qo‘yilmalar bo‘yicha foiz ko‘rinishida mulkdan olingan daromadlar, qimmatbaho qog‘ozlar, dividendlar, renta, ko‘chmas mulkni, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva mollarini sotishdan tushumlar, turli xizmatlarni ko‘rsatishdan olingan daromadlar va hokazolardan iborat.

Aholi pul xarajatlari va jamg‘arish aholining tovarlar va turli xizmatlarni sotib olishga qilgan xarajatlari, majburiy to‘lovlar va turli xil badallar (soliq va yig‘imlar, sug‘urtaga to‘lovlar, ijtimoiy tashkilotlarga badallar, tovar kreditiga foizlar va hokazo) hamda shaxsiy jamg‘armalaridan iborat. O‘rtacha aholi jon boshiga pul daromadlari pul daromadlari umumiy yig‘indisini mavjud aholi soniga bo‘lish orqali hisoblanadi.

Uy xo‘jaligi budjetlarini tekshirish ma’lumotlari aholi daromad tuzilmalari va iste’mol xarajatlarini va aholi turli qatlamlaridagi daromad va xarajatlari o‘zgarishini tavsiflaydi, uy xo‘jaligi va uning tarkibidagi a’zolarning bandligi bilan bog‘langan holda bu darajalardagi farqlarni ochishda foydalaniladi, daromad darajasini iste’mol bilan bog‘langan holda shakllantirishda alohida manbalarning rolini ko‘rsatadi; iste’mol talablari o‘zgarishlarini bosqichma-bosqich ifodalashda foydalaniladi; daromadlar darajasi va aholi turmush darajasini tavsiflovchi boshqa ko‘rsatkichlarni differensiatsiyalashni ifodalaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat nafaqasi to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, aholini ijtimoiy himoyalash organlari hisobida turuvchi pensionerlarning tayinlangan oylik nafaqalari pensionerlar soniga nisbati bilan aniqlanadi. Tayinlangan nafaqa hajmi amaldagi qonunlarga muvofiq belgilanadi. Tayinlangan nafaqaning real hajmi belgilangan oylik nafaqalarning o‘rtacha hajmini iste’mol narxlari indeksiga moslashtirish yo‘li bilan hisoblanadi. Oilalarning daromad va xarajatlarini statistik o‘rganish uy xo‘jaligi budjetlarini statistik tekshirish asosida har oyda muntazam ravishda oilalarni (turli kasbdagi) tanlab olish asosida amalga oshiriladi.

**1-diagramma. Yosh guruhlari bo’yicha aholi soni**

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni Mehnat kodeksiga muvofiq 16



yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollardan tashkil topadi (16 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60 yosh va undan katta erkaklar hamda 55 yosh va undan katta ayollar mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifalariga ajratiladi).

**1-jadval. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (hududlar kesimida)**

| Hududlar | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|---|---|---|---|---|---|
| O‘zbekiston Respublikasi | 15773,9 | 18722,4 | 21396,2 | 25671,6 | 29935,5 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 11981,8 | 14022,4 | 15600,1 | 18277,5 | 20656 |
| Andijon viloyati | 13847,4 | 16834 | 20090,3 | 24081 | 26275,9 |
| Buxoro viloyati | 19420,7 | 22848 | 25341,6 | 29918,8 | 35176,2 |
| Jizzax viloyati | 13928,7 | 15838,1 | 17835,9 | 20126,2 | 22907,4 |
| Qashqadaryo viloyati | 12877,6 | 15318,4 | 16880,8 | 19914,8 | 23517,5 |
| Navoiy viloyati | 26452,4 | 28921,3 | 33238,7 | 38499,1 | 44694,2 |
| Namangan viloyati | 12310,1 | 14815,6 | 16065,8 | 18558,2 | 21304,6 |
| Samarqand viloyati | 13589,6 | 16057 | 17403,8 | 21236,5 | 24471 |
| Surxondaryo viloyati | 12466 | 15259,8 | 16806,5 | 19431,5 | 22572,2 |
| Sirdaryo viloyati | 13572,1 | 15374,4 | 17528,4 | 20181,6 | 23339,5 |
| Toshkent viloyati | 17360,9 | 19540,8 | 22276,2 | 26276,2 | 29830,9 |
| Farg‘ona viloyati | 12109,7 | 14702 | 17772,2 | 19588,9 | 24582,7 |
| Xorazm viloyati | 16672,4 | 20535,1 | 21344,7 | 26338,7 | 31136 |
| Toshkent shahri | 31823 | 38440,2 | 47347,5 | 62305,1 | 73910,5 |

Ushbu 1-jadvalda hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari tarkibi tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi bo’yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarini ko’radigan bo’lsak 2021 yilda References: 15773,9 ming so’mni tashkil etgan. Bu esa 2025 yilga kelib 29935,5 ming so’mni tashkil etgan. Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari tarkibi respublika bo’yicha 2025 yilda 2021 yilga nisbatan 89,77 foizga oshganini ko’rishimiz mumkin.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, aholi turmush darajasini oshirish manbalari ijtimoiy dasturlarning amal qilishi uchun resurs hosil qilish omili hisoblanuvchi iqtisodiy o‘sish bilan shakllanadi. Bunda, avvalo, iqtisodiy o‘sish bilan ijtimoiy taraqqiyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik shakllanadi. Turmush darajasi statistikasi vazifalariga kishilarning hayot faoliyatiga, moddiy shart-sharoitiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, hodisalar va jarayonlarni o‘rganish hamda hal etilishi muhim bo‘lgan ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot muammolarini aniqlash kiradi.

Aholi turmush darajasi ko‘rsatkichlarining yaxshi tuzilgan tizimi ijtimoiy siyosatni samarali ishlab chiqish, kam ta’minlangan aholiga yordam ko‘rsatish, asoslangan qarorlar qabul qilish, mamlakatda o‘tkazilayotgan islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash, davlat va hududiy ijtimoiy dasturlarining amalga oshishini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega. Turmush darajasining statistik tavsiflari uning kompleks baholanishini ta’minlovchi o‘zaro bog‘langan ko‘rsatkichlarning keng tizimiga asoslanad

**Foydalangan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Елесеева И.И. Статистика. Учебник. – М.: Проспект, 2017. – 448 с.
2. Салин В.Н. Статистика уровни жизни населения (бакалавриат, магистратура). Учебное пособие. 2019. – 189 стр.
3. Рутгайзер В.А. Оценка стоимости бизнеса. 2007. – 448 с.
4. Abdullayev Yo.A., Makroiqtisodiy statistika. 100 savol va javob. – T.: Mehnat, 1998. – 382 b.
5. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyoti). Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: Mehnat, 2016. – 610 b.
6. Zokirova N. Inqiroz: oqibatlar, bartaraf etish, mehnat muammolari va yangi marralarga chiqish. – T.: Fan va texnologiya, 2009.
7. Soatov N.M. Statistika asoslari. Darslik. 2003. – 743 bet.
8. Abdurahmonov Q.X., Toxirova X.T. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. O‘quv. qo‘l. TDIU, 2019.
9. Назаров М.Г. Курс социально-экономической статистики. 2000. – 771 с.
10. Abdurahmonov A. Aholi statistikasi. O‘quv qo‘llanma Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2021-y.
11. Уровень жизни населения 2021. Statistik to‘plami. – T., 2021.
12. Abdurahmonov Q. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyoti jamg‘armasi nashriyoti. TDIU, 2019. – 159 b. .. 77

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

# ҲУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИДА ХИЗМАТЛАР ТАРМОҒИНИНГ ТУТГАН ЎРНИНИ СТАТИСТИК БАҲОЛАШ

**РЎЗИЕВ АЛИШЕР ИБРОИМОВИЧ,**
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
“Иқтисодий статистика” кафедраси доценти. *alisher19861611@mail.com*

**Аннотация.**
*Мақолада Ўзбекистон иқтисодиётида хизмат кўрсатиш тармоғининг тутган ўрни, унинг ҳолати ва ривожланиши статистик нуқтаи назардан таҳлил қилинган. Шунингдек, иқтисодиётни модернизация ва диверсификация қилиш шароитида хизматлар соҳасида юз бераётган таркибий ўзгаришлар баён қилинган. Хизмат соҳасини ривожлантириш борасида таклифлар билдирилган ва хулосалар қилинган.*

**Таянч сўзлар:** *хизматлар соҳаси, хизмат турлари, ўсиш суръати, ЯИМ, ЯҲМ, ҳудудлар, кичик тадбиркорлик, қўшилган қиймат, инновация, таркибий силжишлар.*

# СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ПОЛОЖЕНИЯ ОТРАСЛИ УСЛУГ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА

**Рузиев Алишер Иброимович,**
Доцент кафедры “Экономическая статистики” Ташкентского государственного экономического университета *alisher19861611@mail.com*

**Аннотация.**
*В статье анализируется роль отросли услуг в экономике Узбекистана, ее состояние и развитие со статистической точки зрения. Также описаны структурные изменения, происходящие в сфере услуг в условиях модернизации и диверсификации экономики. Сделаны предложения и выводы по развитию сферы услуг.*

**Ключевые слова:** *сфера услуг, виды услуг, темпы роста, ВВП, ВРП, регионы, малый бизнес, добавленная стоимость, инновации, структурные сдвиги.*

# STATISTICAL ASSESSMENT OF THE POSITION OF THE SERVICE SECTOR IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN.

**Ruziyev Alisher Ibroimovich,**
Tashkent state university of economics, professor,
department of "Economic statistics" *alisher19861611@mail.com*

**Annotatsion.**